

TIJORAT BANKLARIDA DAROMADLILIK TAHLILI

XUDOYBERDIYEV ULUG'BEK AXMAD O'G'LII

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Tel: +998909883288

Email: ulugbek.khudoyberdiyev@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada tijorat banklarining foydasi va rentabellik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Bank xizmatlari juda ham xilma-xildir va doimo har xil yangiliklar bilan to'ldirib boriladi. Bankka komission daromad keltiruvchi asosiy xizmatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: yuridik va jismoniy shaxslarning hisob-kitob kassa xizmatlari, plastik kartochkalar bilan operatsiyalar, bank kafolatlarini berish, mijozlarning valyuta shartnomalaridagi bank xizmatlari, qimmatli qog'ozlar bozoridagi brokerlik xizmatlar va boshqalar.

Kalit so'zlar: daromadlilik, tahlil, asosiy xizmatlar, kommission daromad, bank, foya, rentabellik, ko'rsatkich, mukofot, yuridik, Tijorat bank.

Hozirgi paytda banklar umumiy daromadlari hajmida komission daromadlarning o'sganligini ko'rshimiz mumkin. Bu faqatgina foiz marjasi darajasining qisqargani va moliya bozoridagi daromadlaridan tashqari, komission daromadlarning foizli daromadlarga nisbatan barqarorligi bilan bog'liq. Bundan tashqari bank chet el valyutasidagi vositalarni qayta baholash orqali ham daromad olishi mumkin. Tijorat banki daromadi manbalari tuzilishi. Daromad manbai - bizneslarning yig'indisidan olinadi: Ssuda biznesi, Diskont - biznesi, saqlash bilan bog'liq biznes, qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq biznes. Oxirgi yillarda rivojlangan davlatlarda katta ahamiyatga ega bo'lib borayotgan nokredit xarakterdagи mijozlarga bank xizmatini ko'rsatish daromad manbasining muhimligi bo'yicha ikkinchi hisoblanadi. Odatda bu daromadlarni komission daromad deyiladi. Xizmatlarga to'lov, komission mukofot ko'rinishida olinadi. Komission mukofot hamma qilinadigan operatsiya yoki shartnoma summasidan foiz ko'rinishida o'rnatiladi. Bank xizmatlari juda ham xilma-xildir va doimo har xil yangiliklar bilan to'ldirib boriladi. Bankka komission daromad keltiruvchi asosiy xizmatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: yuridik va jismoniy shaxslarning hisob-kitob kassa xizmatlari, plastik kartochkalar bilan operatsiyalar, bank kafolatlarini berish, mijozlarning valyuta shartnomalaridagi bank xizmatlari, qimmatli qog'ozlar bozoridagi brokerlik xizmatlar va boshqalar. Ko'pgina chet davlatlarida ko'pchilik banklar hisob-kitob, kassa va boshqa xizmatlarini mijozlarga tekinga ko'rsatishardi.

Tijorat banklarida daromadlilik tahlili moliyaviy ko'rsatkichlarni o'rganish va bankning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash uchun muhimdir. Daromadlilik tahlili bankning o'z daromadlarini qanday ishlab chiqarishi va xarajatlarini qanday boshqarishini tushunishga yordam beradi. Quyida tijorat banklarida daromadlilik tahlilining asosiy jihatlari keltirilgan:

1. Daromadlilik ko'rsatkichlari

- ROA (Return on Assets): Bankning aktivlaridan qanchalik daromad olishi. Bu ko'rsatkich bankning aktivlarni samarali boshqarish qobiliyatini ko'rsatadi.
- ROE (Return on Equity): Bankning aksiyadorlar kapitalidan qanchalik daromad olishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich aksiyadorlar uchun bankning rentabelligini baholashda muhimdir.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-OKTABR, 2024

- Net Interest Margin (NIM): Bankning kreditlar va depozitlar bo'yicha olgan foiz daromadlari orasidagi farq. Bu ko'rsatkich bankning foiz daromadlarini boshqarish qobiliyatini ko'rsatadi.

2. Xarajatlar tahlili

- Operatsion xarajatlar: Bankning kundalik faoliyatini davom ettirish uchun sarflanadigan xarajatlar, masalan, maoshlar, ijaralar va boshqa xarajatlar.

- Xarajatlar va daromadlar nisbati: Bankning xarajatlari va daromadlari o'rtaisdagi nisbat, bu ko'rsatkich bankning samaradorligini ko'rsatadi.

3. Risklarni boshqarish

- Kredit riski: Bankning kredit portfelidagi noqulayliklar va ularning daromadlilikka ta'siri.

- Bozor riski: Bozor sharoitlarining o'zgarishi, masalan, foiz stavkalari yoki valyuta kurslaridagi o'zgarishlar, bankning daromadlariga qanday ta'sir qilishi.

4. Strategik tahlil

- Mijozlar segmentatsiyasi: Mijozlarga xizmat ko'rsatish strategiyasi va bu strategiyaning daromadlilikka ta'siri.

- Mahsulotlar tahlili: Bank tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlar va xizmatlar daromadliligini baholash.

5. Raqobatbardoshlik

- Bozor ulushi: Bankning bozor ulushi va bu ulushning daromadlilikka ta'siri.

- Raqobatchilar tahlili: Raqobatchilarning moliyaviy ko'rsatkichlari bilan solishtirish.

Tijorat banklarida daromadlilik tahlili, shuningdek, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda bankning barqarorligini va rivojlanish strategiyalarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Bank yordamchi bo'limlarning tijorat faoliyatidan qo'shimcha daromad olishi mumkin. Masalan, agar bank shaxsiy reklama xizmatiga ega bo'lsa, o'z mijozlariga reklama xizmatlarini ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, boshqa xizmatlar ham faqatgina bank faoliyatini ta'minlashga emas, balki mijozlarga pullik xizmat ko'rsatishlari ham mumkin. Bular yuridik, xabarlar, telekommunikatsiya, marketing, auditor, transport va boshqa xizmatlar bo'lishi mumkin. Bank asosiy va qo'shimcha faoliyat daromadlaridan tashqari, boshqa daromadlar kategoriyasiga kiruvchi boshqa daromadlar ham oshishi mumkin. Ular: – jarima, penyalar, mijozlardan olinadigan jarimalar, – ortiqcha tushumlarning kassaga tushishi; – zaxira summasini qayta tiklash; – hisobot yilda tushgan yoki aniqlangan o'tgan yilgi daromadlar; – daromadga soliq ortiqcha to'laganligi uchun budjetdan mablag' qaytarish va boshqalar. Bu daromadlar mohiyatan tasodifiy yoki bankning hisobot davrida «Ishlab topilmagan» daromadlari hisoblanadi. Ular odatda kelasi davrga daromad rejasi tuzilganda hisobga olinmaydi. Yuqorida ko'rib chiqilgan daromad turlarini jadval ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin: Ssuda operatsiyasi: 1) kredit bergenlik uchun foizlar, 2) Veksellar bo'yicha foizli daromad, 3) O'tgan yilgi kredit operatsiyalari bo'yicha daromad. Diskont operatsiyasi: Faktoring va forseyting operatsiyalari bo'yicha diskont daromad. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiya: 1) Uzoq muddatli majburiyatlarga qo'yilmalardan daromad, 2) qimmatli qog'ozlarni qayta sotishdan daromad, 3) Qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar, Kafillik faoliyati: berilgan kafolatlar bo'yicha olingan komissiyalar; Depozit operatsiyalari va mijoz topshirig'i bo'yicha operatsiyalar: Kassa operatsiyasi, inkassatsiyasi operatsiyasi, hisob kitob operatsiyasidan olingan komissiya. Valyuta

operatsiyasi: chet el valyutasida bo‘lgan operatsiya bo‘yicha daromad; forward, fyuchers, svop, opsiyon operatsiyalarini o‘tkazishdan daromadlar; Bank faoliyatining boshqa yo‘nalishi: mulkni ijara ga berishdan daromad, lizing operatsiyalaridan daromad, axborot xizmatlaridan daromad, jarima, penyalar va boshqalar Tijorat banklari daromadlarini tahlil qilishda dastavval ularning tarkibi va dinamikasi o‘rganiladi.

Xulosa

Bu o‘z navbatida bank daromadlariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu holat o‘z navbatida yuqori daromad keltiruvchi xizmatlarini yanada kengaytirish lozimligini aniqlash imkoniyatlarini ham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Bank faoliyati tahlili. T.M.Karaliyev va boshqalar. O‘quv qo‘llanma. Moliya instituti. T.: – 2012. – 136 b.
2. <https://finlit.uz/uz/articles/financial-market/commercial-banks/>
3. Банковское дело: учебник / под.ред. Г. Н. Белоглазовой, А. П. Кроливецкой. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2007. – 592 с.: ил.
4. Буевич С. Ю., Королев О. Г. Анализ финансовых результатов банковской деятельности:учеб.пособие-М.:КНОРУС,2004.–160 с.
5. Белых Л. П., Устойчивость коммерческих банков. –М. 2002 год. –255 с 5. Щербакова Г. Н. Анализ и оценка банковской деятельности.-М.:Вершина,2006